



Buxoro davlat tibbiyot
instituti gazetasi

Farzandlari sog`lom yurt qudratli bo`lur,
Qudratli yurtning farzandlari sog`lom bo`lur

Apr
2026-yil

Ibn Sino Vorislari

Tibbiyot sohasi rektorlari TDTU TERMIZ FILIALIDA BO`LISHDI

Termiz shahrida o`tkazilayotgan sport haftaligi doirasida Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori Shuhrat Abdijalilovich Boymuradov, Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori Shuhrat Jumayevich Teshayev hamda Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali direktori Furqat Abdukarimovich Otamuradov hamrohligida oliyog`ha tashrif buyurishdi.



Tashrif davomida mehmonlar filial faoliyati bilan yaqindan tanishib, ta`lim jarayonlari va yaratilgan sharoitlarni ko`zdan kechirishdi. Shuningdek, talabalar tomonidan ishlab chiqilgan istiqbolli startap loyihalar taqdimoti katta qiziqish bilan o`rganildi.

Uchrashuv jarayonida Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori Shuhrat Jumayev tomonidan talabalar uchun akademik mobillik

imkoniyatlarini kengaytirish masalalari alohida ta`kidlanib, Termiz filiali talabalari Buxoroga o`qish va tajriba almashish maqsadida taklif etildi.

Uchrashuv yakunida yoshlar bilan ochiq muloqot o`tkazilib, ularning fikr-mulohazalari tinglandi hamda kelgusidagi rejalar yuzasidan samimiy suhbat tashkil etildi.

Behzod ADIZOV,
Institit matbuot kotibi

Institutga xorijiy
hamkorlar tashrif
buyurdi

Institutda
muhim taqdimot
o`tkazildi

Muhammad Yusuf
tavalludi keng
nishonlandi

2

3

4

Institutga xorijiy hamkorlar tashrif buyurdi



Yaponiyahuniz "Tokyo Boeki EURASIA" kompaniyasi bosh direktor o'rinbosari Yarkovich Dmitriy Ivanovich hamda kompaniya vakili Tinkov Vitaliy Aleksandrovich institutga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida mehmonlar tomonidan taqdimot o'tkazilib, institutning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ilmiy tadqiqot ishlarini jahon darajasiga olib chiqish masalalari

atroficha muhokama qilindi.

Jumladan, institut uchun zamonaviy elektron mikroskop xarid qilish masalasi ham ko'rib chiqildi. Ushbu qurilma ilmiy izlanishlar sifatini oshirish, xalqaro darajadagi tadqiqotlar olib borish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Tashrif yakunida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

"To'maris izdoshlari" sport musobaqasining HUDUDIY BOSQICHI BO'LIB O'TDI

Kuni kecha Buxoro davlat universitetining "Universal" sport majmuasida oliy ta'lim muassasalari talaba-qizlari o'rtasida "To'maris izdoshlari" sport musobaqasining hududiy bosqichi bo'lib o'tdi.



Musobaqaning ochilish marosimi O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi bilan boshlandi. Tadbirni Buxoro davlat universiteti rektori Obidjon Hamidov ochib berib, talaba-qizlarning sportdagi faolligini qo'llab-quvvatlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, yoshlar, ayniqsa qizlarning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash masalalariga alohida to'xtalib, barcha ishtirokchilarga omad tiladi.

Musobaqa Buxoro davlat universiteti xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi hamda

Sport va san'at fakulteti hamkorligida tashkil etilgan bo'lib, unda Buxoro davlat universiteti, Buxoro davlat texnika universiteti, Buxoro davlat tibbiyot instituti hamda Buxoro davlat pedagogika instituti jamoalari ishtirok etishdi.

Musobaqa qizg'in va murosasiz bahslar bilan boshlanib, "Jamoani tanishtirish", "Sport bilan hamnafasmiz", "Birinchi tibbiy yordam" hamda "Velosipedda uchish" kabi bir-biridan ajoyib shartlar bilan davom etdi.

Ishtirokchi jamoalar har bir shartda

o'zlarining tayyorgarligi, chaqqonligi, jamoaviyligi va amaliy ko'nikmalarini namoyon etdilar. Ayniqsa, tezkorlik va hamjihatlikni talab etuvchi bahslar tadbirga o'zgacha shukuh bag'ishladi.

Mazkur musobaqa talaba-qizlarning sportga bo'lgan qiziqishini oshirish, jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash, jamoada ishlash va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Feruz TOIROVA,
Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i

Institutda muhim taqdimot o'tkazildi

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida "O'zbekiston kasaba uyushmalari: 120 yillik xalqparvarlik tarixi" kitobining taqdimot marosimi bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirda institut kasaba uyushmasi kengashi raisi Muxtor Jumayev, viloyat sog'liqni saqlash muassasalari kasaba uyushmasi kengashi rahbariyati, shuningdek, professor-o'qituvchilar va talaba yoshlar ishtirok etdilar.

Taqdimot davomida so'zga chiqqanlar mamlakatimizda 120 yildan buyon samarali faoliyat yuritib kelayotgan kasaba uyushmalari tizimining shakllanishi, uning bosqichma-bosqich rivojlanishi hamda bugungi kundagi o'rni haqida batafsil

ma'lumot berishdi.

Qayd etilganidek, kasaba uyushmalari mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kitobda ana shu tarixiy jarayonlar, muhim islohotlar va amaliy natijalar keng yoritilgan.

Tadbir davomida ishtirokchilar kitob mazmuni bilan yaqindan tanishib, kasaba uyushmalari faoliyatining dolzarb jihatlari yuzasidan fikr almashdilar.

Mazkur taqdimot yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.



HAQIQATLI BAHO — HAQIQIY KELAJAK

Bugungi kunda tibbiyot sohasi nafaqat chuqur bilim, balki yuksak mas'uliyat, halollik va insonparvarlikni talab etadigan eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Shu bois tibbiyot institutida tahsil olayotgan talaba-yoshlar uchun "haqiqatli baho" tushunchasi oddiy baholash mezonini emas, balki ularning kelajak kasbiy faoliyatini belgilab beruvchi mustahkam poydevordir.

Avvalo, haqiqatli baho — talabning bilim darajasini xolis va adolatli aks ettirish demakdir. Agar baholash jarayonida shaffoflik va adolat ustuvor bo'lsa, talabalar o'z ustida ishlashga, bilim va ko'nikmalarini yana-da mustahkamlashga intiladilar. Aks holda esa, sun'iy ravishda yuqori baho olish yoki yetarli bilimsiz bosqichdan o'tish kelajakda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki tibbiyot sohasidagi har bir xato inson hayoti va salomatligi bilan bevosita bog'liq.

Ikkinchidan, haqiqatli baho talabada mas'uliyat hissini shakllantiradi. Har bir qo'yilgan xolis baho talabning qay darajada tayyor ekanini aniq ko'rsatib



beradi. Bu esa uni o'z kamchiliklarini anglashga, ularni bartaraf etishga va o'zini doimiy ravishda rivojlantirishga undaydi. Shifokorlik kasbini tanlagan yoshlar uchun bu sifatlar ayniqsa muhimdir.

Uchinchidan, adolatli baholash muhiti sog'lom raqobatni shakllantiradi. Bunday sharoitda talabalar bir-biri bilan emas,

balki o'z bilim va salohiyatini oshirish bilan raqobatlashadilar. Natijada esa guruhda o'zaro hurmat, hamjihatlik va qo'llab-quvvatlash muhiti yuzaga keladi.

Shu bilan birga, o'qituvchilarning mas'uliyati ham beqiyosdir. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarni to'g'ri yo'lga yo'naltiruvchi ustoz sifatida har bir bahoni xolis va adolatli qo'yishlari zarur. Haqiqatli baho — bu ustozning vijdoni, kasbiy etikasi va adolat tamoyillariga sodiqligining yorqin ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, haqiqatli baho — bu faqat bugungi natija emas, balki ertangi muvaffaqiyat kalitidir.

Tibbiyot sohasida ta'lim olayotgan yoshlar uchun adolatli baholash tizimi ularni bilimli, mas'uliyatli va haqiqiy shifokor bo'lib yetishishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zero, haqiqatli baho ustuvor bo'lgan joyda, albatta, haqiqiy kelajak barpo etiladi.

Hurshid FAYZIYEV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompleks nazorat bo'limi boshlig'i

Muhammad Yusuf tavalludi keng nishonlandi



Muhammad Yusuf — o‘zbek adabiyotining eng sevimli va xalqchil shoirlaridan biri bo‘lgan. Uning she‘rlari sodda, samimiy va yurakka yaqinligi bilan omma orasida mashhurdir.

Muhammad Yusuf she‘rlari ko‘plab qo‘shiq'larga aylangan va xalq orasida hanuzgacha sevib tinglanadi. Uning nomi bugun ham o‘zbek adabiyotida yuksak hurmat bilan tilga olinadi.

Kuni kecha shoir tavalludining 72 yilligi institutimizda keng nishonlandi. Sana munosabati bilan o‘zbek xalqining ardoqli shoiri Muhammad Yusuf

xotirasiga bag‘ishlangan badiiy kecha tashkil etildi.

Tadbirda nafaqat institut ustoz va talabalari balki, yaponiyalik mehmonlar ham ishtirok etdilar.

Kecha avvalida so‘z olgan institut rektori Shuhrat Teshayev ayni paytda yurtimizda mehmon bo‘lib turgan Yaponiyaning JICA kompaniyasi

vakillarini ham minbarga taklif qildi.

Mehmonlar xalqimizning ulug‘ adibiga ehtirom ko‘rsatar ekan, yuksak saviyada tashkil etilgan adabiy kecha ularda katta taasurol qoldirganini alohida e‘tirof etdilar.

Tadbir davomida talabalar tomonidan shoirning mazmun-mohiyatga boy she‘rlari o‘qilib, uning hayoti va ijodiga oid sahna ko‘rinishlari namoyish etildi.

Badiiy kechada ishtirok etgan adabiyot ixlosmandlari Muhammad Yusuf ijodining betakror jozibasini yana bir bor his etishdi.

Milliy qadriyatlar tarannumi — ma‘naviyat KO‘ZGUSIDAGI BETAKROR IFODA

Mazkur tadbir nafaqat estetik tomosha, balki milliy o‘zlikni anglash va uni targ‘ib etish yo‘lida muhim ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyat kasb etdi.



Abu Ali ibn Sino nomi bilan atalgan oliyog‘h tomonidan tashkil etilgan esa ushbu tadbirga alohida mazmun bag‘ishlaydi — ilm va madaniyat uyg‘unligi yana bir bor namoyon bo‘ldi.

Nodirdevonbegi majmuasi kabi tarixiy maskanda o‘tkazilgan esa milliy merosimizning uzviy davomiyligini ifodalaydi.

Tadbir orqali yoshlar qalbida milliy liboslarimizga bo‘lgan hurmat va qiziqish yanada ortib, ular orqali xalqimizning boy tarixi, urf-odatlar va estetik qarashlari keng targ‘ib etildi.



Shuningdek, xorijiy sayyohlar ishtiroki bu jarayonni xalqaro maydonga olib chiqib, o‘zbek milliy qadriyatlarini dunyoga tanitishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bunday tadbirlar milliy g‘urur va madaniy merosimizni asrab-avaylash, uni kelajak avlodga yetkazish yo‘lida beqiyos ahamiyatga ega.

Saida XODJAYEVA,
tyutor

Talabalar uchun intellektual BAHSLAR VA MAROQLI HORDIQ

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida talaba-yoshlar o'rtasida shaxmat, shashka va stol tennisi bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.



Unda yoshlar o'zlarining tafakkuri, ziyakligi va strategik fikrlash qobiliyatlarini namoyon etib, qizg'in va murosasiz bahslarda bellashdilar. Har bir yo'nalish bo'yicha kuchli ishtirokchilar aniqlanib, g'olib va sovrindorlar munosib taqdirlandi.

Shuningdek, tadbir doirasida talaba-yoshlar uchun tabiat qo'ynida maroqli piknik ham uyushtirilib, ularning bo'sh

vaqtlarini mazmunli tashkil etish, jamoaviylik va do'stlik muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Mazkur tashabbuslar oliygohda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati va sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Institut matbuot xizmati

“Zakovat” intellektual o'yini tashkil etildi

Buxoro davlat tibbiyot institutida talabalar o'rtasida “Zakovat” intellektual o'yini yuqori saviyada o'tkazildi.

Mazkur tadbir davomida ishtirokchilar o'zlarining bilim darajasi, mantiqiy fikrlash qobiliyati hamda tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini namoyon etdilar. Bellashuv jarayonlari qizg'in va murosasiz ruhda kechib, jamoalar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti yuzaga keldi.

Intellektual o'yin yoshlarning bilimga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga xizmat qildi.

Bunday tadbirlar yoshlar orasida ilm-fan va tafakkurga bo'lgan e'tiborni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ismat ISROILOV,
talaba





Ark qal'asi hududida Buxoro viloyatidagi OTM talaba-yoshlari ishtirokida ertalabki badantarbiya MASHG'ULOTLARI TASHKIL ETILDI

Mazkur sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan tadbirida Buxoro viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari rektorlari hamda turli tashkilotlar vakillari ham faol ishtirok etib, jismoniy faollik va birlik muhitini yanada mustahkamlashga o'z hissalarini qo'shdilar. Ertalabki mashg'ulotlar ishtirokchilarga kunni tetiklik bilan boshlash, sog'lom hayot tarziga amal qilish hamda

jamoaviylik ruhini his etish imkonini berdi. Tadbir davomida samimiy muhit, ijobiy kayfiyat va faol ishtirok alohida e'tiborga sazovor bo'ldi.

Tadbir davomida sog'lom turmush tarzining ahamiyati, muntazam sport bilan shug'ullanishning foydasi haqida ham alohida to'xtalib o'tildi.

Mehr ulashish yo'lida ezgu tashabbus



Buxoro davlat tibbiyot instituti Tibbiyot fakulteti Davolash yo'nalishi 115-guruh talabalari mehr ulashish maqsadida 24-sonli ko'zi ojizlar maktabiga tashrif buyurdilar.

Tashrif davomida talabalar o'quvchilar bilan samimiy suhbat qurib, ularning holidan xabar oldilar hamda ularga ma'naviy ko'mak ko'rsatdilar. Ushbu ezgu tashabbus yoshlar qalbidagi mehr-oqibat, insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.



Buxoro davlat tibbiyot institutida "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazildi



Umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalariga jalb etish maqsadida Buxoro davlat tibbiyot institutida "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri tashkil etildi.

Mazkur tadbirida registrator ofisi boshqarmasi 7-sektor boshlig'i O'tkirjon Xodjaev, Tibbiyot fakulteti dekani Dilshod Xudayberdiev hamda Romitan tumani umumiy o'rta ta'lim maktablarining 50 nafar iqtidorli bitiruvchi o'quvchilari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida ishtirokchilarga institutdagi ta'lim jarayoni, mavjud imkoniyatlar hamda talabalik hayoti haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Saboxat QUVVATOVA, talaba

Akademik mobillik: Buxoro va Qirg‘iziston tibbiyot oliygohlari o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichda

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida akademik mobillik dasturi doirasida navbatdagi xalqaro hamkorlik tadbiri o‘tkazildi.



Joriy yilning 13–20-aprel kunlari I.K. Axunbayev nomidagi Qirg‘iziston davlat tibbiyot akademiyasi professori, t.f.d. S.M. Mamatov institutning Gematologiya, klinik laborator diagnostika, nefrologiya va gemodializ kafedrasida bo‘ldi.

Tashrif davomida professor tomonidan o‘qilgan ilmiy-amaliy ma‘ruzalar talaba va yosh mutaxassislar uchun o‘zaro tajriba almashish maydoniga aylandi. Unda tibbiy ta‘lim sifatini oshirishda xalqaro akademik almashinuvning o‘rni va turli ilmiy maktablar yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish masalalari muhokama qilindi.

Buxoro davlat tibbiyot instituti axborot xizmati xabariga ko‘ra, bunday hamkorlik aloqalari nafaqat pedagogik yondashuvlarni boyitishga, balki bitiruvchilarning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Kiberxavfsizlik — bugunning ENG DOLZARB MASALASI!



Buxoro davlat tibbiyot institutida viloyat IIBning kiberxavfsizlik bo‘limi boshlig‘i Umid Hasanov ishtirokida muhim va mazmunli ma‘ruza tashkil etildi. Tadbir davomida internet tarmog‘ida uchrayotgan zamonaviy tahdidlar, firibgarlik usullari hamda shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish masalalari keng yoritildi.

Ma‘ruzachi talabalarga: — ijtimoiy tarmoqlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish — shubhali havolalar va soxta sahifalardan ehtiyot bo‘lish — bank kartalari va shaxsiy ma‘lumotlarni himoyalash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berdi.

Ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalgan kiberjinoyatlar misollar orqali tushuntirilib, ularning oldini olish yo‘llari muhokama qilindi.

Tadbir yakunida talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi va kiberxavfsizlikka oid bilimlarini yanada mustahkamlashdi.



Talabalar turar joylarida sog‘lom turmush sari muhim tashabbus



Buxoro davlat tibbiyot institutining barcha talabalar turar joylarida ertalabki sport tadbirlari doirasida badantarbiya mashg‘ulotlari tashkil etilmoqda. Ushbu mashg‘ulotlar talabalarning jismoniy faolligini oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda kunni ko‘tarinki ruhda boshlashga xizmat qilmoqda.

Mashg‘ulotlar davomida talabalar turli jismoniy mashqlarni bajarib, o‘z salomatliklarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ldilar. Tadbirlar yuqori saviyada, uyushqoqlik va tartib asosida tashkil etilgani, ishtirokchilarning yuqori kayfiyatidan shundoqqina sezilib turdi.

Mazkur tashabbus yoshlar o‘rtasida sport va sog‘lom hayot tarzini keng targ‘ib etish, ularning jismoniy hamda ruhiy salomatligini mustahkamlashga qaratilgan. Shu bois bunday mashg‘ulotlarni muntazam ravishda tashkil etish rejalashtirilgan.

Gulzoda RAHMONOVA, talaba

Stomatologga borgunga qadar og'riqni qoldiring

Kariyes, tushib qolgan plomba yoki milkdagi shishlar ba'zan chidab bo'lmas og'riqlarni keltirib chiqaradi. Agar yoningizda og'riq qoldiruvchi dorilar bo'lmasa yoki ma'lum sabablarga ko'ra dori ichish mumkin bo'lmasa, shifokorga borgunga qadar holatni yengillashtirishning bir necha samarali yo'llari bor.



1. Chinnigul (gvozdika)

Bu ziravor qadimdan tish og'rig'iga qarshi qo'llanib keladi. Buning siri uning tarkibidagi evgenol moddasidir. U tabiiy og'riq qoldiruvchi hisoblanadi. Chinnigul g'unchasini bir oz chaynab, efir yog'ini chiqaring va og'riyotgan tishingiz ustiga qo'ying. Bir oz vaqt o'tgach, og'riq kamayganini sezarisiz.

2. Tuzli suv

Bir piyola iliq suvda eritilgan bir choy qoshiq tuz tish atrofidagi mikroblarni o'ldiradigan va shishni qaytaradigan eng oddiy, ammo samarali vositadir. Og'izni kamida 30 soniya davomida yaxshilab chaying. Bu muolajani shifokorga borgunga qadar xohlaganicha takrorlashingiz mumkin.

3. Qora choy

Bir dona qora choy paketchasini qaynoq suvga botirib oling, so'ng uni bir oz sovitib, og'riyotgan tish ustiga qo'ying. Choy tarkibidagi ffor bakteriyalarga qarshi kurashsa, tanninlar milkdagi shish va og'riqni kamaytirishga yordam beradi.

4. Vodород perioksidi

Agar tish og'rig'i isitma yoki og'izdan keladigan yoqimsiz ta'm bilan birga kelsa, bu infeksiya alomati bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda 3 foizli vodorod perioksidi yordam

beradi. Avval og'izni ushbu eritma bilan chaying (suyuqlikni albatta tupurib tashlang), so'ngra og'iz bo'shlig'ini bir-ikki marta toza suv bilan yaxshilab chaying.

5. Muz

Qo'lining bosh va ko'rsatkich barmoqlari tutashgan joyidagi nuqtani muz bo'lagi bilan massaj qilish tish og'rig'ini qoldirishga yordam beradi, chunki aynan shu nuqta orqali og'riq signallari o'tadi. Nevrologik yo'llar bir vaqtning o'zida faqat bitta signalni o'tkaza olgani uchun, sovuqlik va ishqalanish hissi tishdagi og'riq signalini bloklab qo'yadi.

6. Sirka va murchli kompress

Miyani chalg'itishning yana bir yo'li isituvchi kompressdir. Kraft qog'ozning kichik bo'lagini sirka bilan namlang, bir tomoniga qora murch seping va o'sha qismini yonog'ingizning og'riyotgan tomoniga qo'ying. Bunday issiqlik effekti e'tiboringizni tishdagi og'riqdan chalg'itishga ko'maklashadi.

7. Shakarsiz saqich

Agar plomba tushib ketgan bo'lsa yoki tish sinsa, ochiq qolgan sezuvchan joyni yumshatilgan saqich bilan vaqtincha yopib turish mumkin. Ammo ehtiyot bo'ling: saqich albatta shakarsiz bo'lishi shart! Aks holda, tarkibidagi shakar ochiq qolgan tish kanaliga tushib, og'riqni yanada kuchaytirib yuboradi.

Eslatma: Yuqorida keltirilgan usullar faqat vaqtinchalik chora hisoblanadi va muammoning sababini butkul davolamaydi. Og'riq bir oz pasayishi bilan, albatta, stomatologga murojaat qilishni kechiktirmang.

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

Dotsent lavozimiga talabgorlar

- ✓ Preventiv tibbiyot, jamoat salomatligi va sog'likni saqlash menejmenti kafedrası –1 o'rin
- ✓ Oftalmologiya kafedrası –1 o'rin
- ✓ Travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrası –1 o'rin
- ✓ Xirurgik stomatologiya kafedrası –1 o'rin
- ✓ Ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası –1 o'rin
- ✓ Umumiy xirurgiya kafedrası –1 o'rin

Dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga talabgorlar

- ✓ Nefrologiya, gemodializ, gematologiya va klinik laborator diagnostika kafedrası –1 o'rin
- ✓ Gistologiya, sitologiya va embriologiya kafedrası –1 o'rin.

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori (DSc) ilmiy darajasi hamda dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent) lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi ilmiy darajasiga, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 23 uy, BuxDTI Kengashi kotibasi.



MUASSIS:

Abu Ali ibn Sino
nomidagi
BUXORO DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI

Muharrir:
Behzod ADIZOV

Mas'ul kotib:
**Umiddjon
HAKIMOV**

Elektron manzil:
bsmiuz@umail.uz

**TAHRIRIYAT
MANZILI:**

705018.
Buxoro shahri,
G'ijduvon ko'chasi 23-uy.
Telefon: 223-40-45

Sahifalovchi:
**Kamola
SULAYMONOVA**

Gazeta viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2007 yil 16 yanvarda 27-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan.

Guvohnoma raqami: 05-027

Gazeta viloyat bosmaxonasida 500 nusxada chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:
27.04.2026 yil. soat 15:30

Buyurtma 1478